

MATEMATIKA FANIDAN XALQARO TADQIQOTLARGA TAYYORGARLIK

O.Z.Berdiyeva, G.A.Mingjigitova, N.M.Ne'matjonova

Guliston shahar 2-maktab matematika fan o'qituvchilari,

maktab2*gul@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7567371>

Annotatsiya: Pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuvga asosan bilimlarini rivojlantirish, pedagoglarning egallagan bilim, ko'nikma va malakalaridan samarali foydalanib xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik ko'rish, namunaviy testlarni tuzishga targ'ib qilish, o'quvchilarining matematik savodxonligining muntazam rivojlanishiga shart-sharoit yaratishlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: baholash, xalqaro baholash, matematik savodxonlik, dolzarb muammolar, islohotlar, ilg'or tajribalar, kompetensiyalar.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha bir qator islohatlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, xalqaro baholash dasturlarini o'rganish va ushbu dasturda ishtirok etish bilan milliy ta'lim tizimiga haqqoniy baho berish, rivojlangan davlatlar ta'lim tizimi yutuqlarini o'rganish va tajriba almashish imkonini berayotgani eng muhim jarayonlardan biridir. Ta'lim tizimini rivojlantirish bugungi kun uchun nechog'lik muhim bo'lsa, xalqaro baholash dasturlarida ishtirok etish ham shunchalik keraklidir.

Ayni damda har bir insonning hayoti va kasbiy faoliyatida texnogen komponentning o'sishi kuzatilmoqda. Shuning uchun nafaqat kelajakdagi mutaxassisni, balki har bir maktab o'quvchisini to'laqonli matematik savodxonlik bo'yicha tayyorlashning ahamiyati ortib bormoqda. Matematikani o'qitishning maqsadlari ham kuchaytirilmoqda. Ular matematikaning o'ziga xos jihatlari, fanni o'rganishni va amaliy qo'llanilishini ham rivojlantiradigan shaxsiy xususiyatlariga mos kelishi kerak. Matematik savodxonlikni o'rganish doimiy e'tiborni, qat'iyatni, diqqatni jamlay olish qobiliyatini talab qiladi, ya'ni aqlni rivojlantirishda ham, xarakterni shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi. Chunki amaliy hayot uchun zarur bo'lgan hisoblash, geometrik tasvirlar, formulalar, funksiyalar, grafiklar, diagrammalar, jadvallar bilan bog'liq bilimlar uchun zarur

bo'lgan materiallarni o'zlashtirish lozim. Demak, matematik savodxonlik – bu shaxsning turli hayotiy vaziyatlar (kontekstlar) va masalalar ustida matematik mulohaza yuritish, berilgan muammoni matematika yordamida ifodalay olish, muammoni yechishda matematikani qo'llay olish va olingan natijalardan muammoning yechimini talqin qilish va baholashda foydalana olish qobiliyatidir.[1]

Xalqaro tadqiqoti doirasida baholash uchun test topshiriqlarini tuzishda mazmun sohasini mukammal tushunish talab qilinadi. Shu bilan birga tasavvur qilish va kreativlik ham talab etiladi. Xalqaro tadqiqoti doirasida baholash uchun test topshiriqlari quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi:

✓ Javobi tanlanadigan test topshiriqlari – Javobi tanlanadigan test topshiriqlari va javob formatlari savol yoki topshiriq bilan birga to'g'ri javob hamda ehtimoliy javob variantlari taqdim etiladi. Mufaffaqiyatli javob berish uchun o'quvchilar berilgan variantlar orasidan to'g'ri javobni tanib olishlari va tanlashlari zarur. Javobi tanlanadigan formatlar nisbatan qisqa test o'tkazish vaqtida katta hajmdagi mazmun sohasini valid, ishonchli va tejamkor tarzda baholashga imkon beradi. Ko'pincha, ushbu test topshiriqlarining to'g'ri javoblarini yaqqol ajratib olish mumkin va ular avtomatik tarzda baholanadi. Javobi tanlanadigan test topshiriqlarining bitta javob tanlanadigan va bir nechta javob tanlanadigan turlari mavjud.

Bitta javob tanlanadigan test topshiriqlari, odatda, bitta savol yoki topshiriq bilan birga to'rtta javob varianti (ya'ni A, B, C, D) ga ega bo'lib, ulardan bittasi to'g'ri sanaladi.

Bir nechta javob tanlanadigan test topshiriqlari biror bir tushunchaga oid bitta savolni o'z ichiga oladi, bunda javob variantlarining deyarli yarmi to'g'ri va yarmi noto'g'ri bo'ladi.

✓ Konstruktiv javobli test topshiriqlari – O'quvchilar konstruktiv javobli test topshiriqlariga javob berishda o'zlarining javoblarini yozishlari kerak, bunda javobi tanlanadigan test topshiriqlarida bo'lganidek, javob variantlari tayyor holda berilmaydi. [2]

Bitta javob tanlanadigan test topshiriqlari namunalari:

1-topshiriq: Sonlar yozuvidagi 3 raqami xona birligi nimani anglatadi?
328 623547 126381539

A. yuzlik, minglik, yuz minglik

B. o'nlik, minglik, millionlik

C. yuzlik, o'n minglik, yuz minglik

D. o'nlik, bir minglik, o'n millionlik

Baholash mezon	
Mazmun sohasi	sonlar va amallar
Mavzu sohasi:	butun sonlar
Kognitiv soha	qo'llash
Maksimal ball	1

Kalit	A
--------------	----------

2-topshiriq. Malikada 3ta oq, 2ta qora va 2ta kulrang qog'oz varag'i bor. U qora bo'lmagan barcha qog'ozlarni ikkiga bo'ldi. Keyin barcha oq bo'lmagan qog'ozlarini ikkiga bo'ldi. Malikada nechta qog'oz varag'i hosil bo'ldi?
Javob:_____

Baholash mezon	
Mazmun sohasi	Sonlar va amallar
Mavzu sohasi:	Shakllar va munosabatlar
Kognitiv soha	Mulohaza yuritish
Maksimal ball	3
Kalit	18 ta

3-topshiriq. $2500+3744+4500+2366 =$
Quyidagi ifodani qo'shishning guruhlash xossasi asosida hisoblang:
J:_____

4-topshiriq. Madinaning harfli, harfsiz, katta, kichik kubiklari va koptoklari bor. U o'yinchoqlarini ikkita qopga soldi. Katta o'yinchoqlarini birinchi qopga, kichiklarini ikkinchi qopga soldi. Masala shartiga mos o'yinchoqlarni Eyler doirachasida tasvirlang.
Javob:_____

Baholash mezon	
Mazmun sohasi	Geometriya va o'lchashlar
Mavzu sohasi:	O'lchashlar
Kognitiv soha	Mulohaza yuritish
Maksimal ball	3
Kalit	

References:

1. O'quvchilarni xalqaro tadqiqotlarga tayyorlashga mo'ljallangan axborotnoma 2. "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent — 2020y
2. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. O'quv qo'llanma
3. G'aniyeva G. A. – "Rasmi testlar." Toshkent. Bayoz 2021-yil. 68 b.